FARG‘ONA VILOYATI OLTIARIQ TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 12-noyabr | 231-11-151-Q/24 | Oltiariq tuman hokimligi

Farg‘ona viloyati hokimining 2024-yil 6-noyabrdagi “Qarovsiz hayvonlarni saqlashga mo‘ljallangan pitomnik tashkil etish to‘g‘risida”gi 587-11-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2024-yil 21-fevral kunidagi PF-37-son farmoni 3-ilovasi, 66-maqsad, 10-bandiga asosan mahalliy byudjet va Ekologiya jamg‘armasi mablag‘larini jalb etgan holda qarovsiz hayvonlarni saqlashga mo‘ljallangan pitomnik tashkil etish vazifasi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son farmoni 3-ilovasi 66-maqsad, 10-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgust kungi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qarori bilan tasdiqlangan ma’muriy reglamentiga binoan vakolatli tashkilotlarning “YERELEKTRON” AATda A1730203068/3-lot orqali taqdim etilgan ijobiy xulosalari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologik espertizasi markazi Farg‘ona viloyati filialining “Davlat ekologik ekspertiza xulosasi”ni va boshqa hujjatlarni ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 10, 211-moddalariga muvofiq

QAROR QILAMAN:

1.Farg‘ona viloyati hokimligining 2024-yil 6-noyabr kungi 587-11-0-Q/24-sonli “Qarovsiz hayvonlarni saqlashga mo‘ljallangan pitomnik tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qarori bilan tasdiqlangan Ma’muriy reglamentiga binoan vakolatli tashkilotlarning “YERELEKTRON” AAT A1730203068/3-lot orqali taqdim etilgan xulosalari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologik espertizasi markazi Farg‘ona viloyati filialining 2024-yil 27-sentabrdagi 01-02/12-1191 tartib raqamli “Davlat ekologik ekspertiza xulosasi” tasdiqlansin.

3. Oltiariq tumani “Povulg‘on” massivi hududidagi 545q-konturida joylashgan davlat zaxirasidagi 1,0 gektar yer maydoni qarovsiz hayvonlarni saqlashga mo‘ljallangan pitomnik tashkil etish uchun Oltiariq tumani hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilsin.

4. Oltiariq tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (Gafurov), Obodonlashtirish bo‘limi (Rustamov) ga:

-qarovsiz hayvonlarni saqlashga mo‘ljallangan pitomnik tashkil etish bo‘yicha belgilangan tartibda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqilishi, ekspertizadan o‘tkazilishi hamda qurilish ishlarini o‘z muddatida amalga oshirilishini ta’minlash;

-ajratilgan yer maydoniga bo‘lgan huquqni belgilangan tartibda davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlash;

-yerdan foydalanish davrida yer maydoniga doir va chegaradosh yer uchastkalari egalari, foydalanuvchilari, ijarachilari va mulkdorlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmaslik choralarini ko‘rish vazifalari belgilab qo‘yilsin.

5. Tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (Abdulatipov) qurilishiga ruxsat berilayotgan obyekt uchun belgilangan tartibda shaharsozlik va “Arxitektura rejalashtirish topshiriqlari” (ART) hujjatlarini tayyorlanishiga amaliy yordam bersin.

6. Davlat kadastrlari palatasi Oltiariq tuman bo‘limi (Xoshimov)ga

-mazkur qarorga muvofiq yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritilishi va ajratilgan yer maydoniga bo‘lgan mulkiy huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlash vazifasi topshirilsin.

7. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (Ne’matov), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi (Usmonov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Gafurov) bilan birga ushbu qarorda belgilangan vazifalarni o‘z muddatida bajarilishini nazoratga olsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Oltiariq tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Gafurov zimmasiga yuklansin.

Oltiariq tumani hokimi  **Sh.Turdaliyev**